

Nukus davlat pedagogika instituti

Nukus davlat pedagogika instituti
FILOLOGIYA FAKUL`TETI
O`ZBEK TILSHUNOSLIK KAFEDRASI
O`zbek tili
fani

Tuzuvchi: Xudayarova M
2011

Darsning maqsadi:

- Fe`l mayllari haqida nazariy ma`lumot berish.
- Talabalarda tozalik, ozodalik xususiyatlarni shakllantirish.
- Talabalarning yozma va og`zaki nutqini rivojlantirish

Darsning shiori:

Bo`lay desang bilimdon,
O`qi, takrorla har on.

Fe`l nisbatlari

- Fe`llardagi ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi fe`l nisbati deyiladi.

Fe`lning besh nisbat shakli bor: aniq nisbat, o`zlik nisbat, majhul nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbat.

Aniq nisbat. Nisbat qo`shimchasi olmagan fe`l aniq nisbatdagi fe`l hisoblanadi: yozdi, aytdi, o`qidi

- **O`zlik nisbat.** Bunday fe`llar ish-harakat bajaruvchining o`zida qolganligini anglatadi va -(i)n, -(i)l qo`shimchalar bilan hosil bo`ladi. Masalan: bezandi, sevindi.
- **Majhul nisbat.** Bunday fe`llar ish-harakatning bajaruvchisi noaniq ekanligini bildiradi va -(i)l, -(i)n qo`shimchalar bilan hosil bo`ladi.
- Masalan: yozildi, bajarildi.
- O`zlik va majhul nisbatlar shakl jihatdan bir-biriga o`xshaydi, biroq mazmunan farq qiladi.

- Agar fe`l o`zlik nisbatda ham, majhul nisbatda ham qo`llaniladigan bo`lsa, o`zlik nisbat -(i)n, majhul nisbat -(i)l shaklini oladi: tarandi-taraldi.
- **Birgalik nisbat.** Birgalikda bajarilgan ish-harakatni bildirgan so`zlar birgalik nisbatdagi fe`llar hisoblanadi. Bular fe`lga -(i)sh qo`shimchasini qo`shish bilan hosil qilinadi: borishdi, kelishdi



- Birgalik nisbat shakli ko`plik qo`shimchasi bilan grammatik sinonim hisoblanadi: borishdi-bordilar.
- **Orttirma nisbat.** Biror shaxs ta`sirida boshqa shaxs tomonidan bajarilgan ish-harakatni bildiruvchi fe`llar orttirma nisbat hisoblanadi. Bunday fe`llar -t, -tir, -dir, -ir, -ar, -iz, -giz, -kiz qo`shimchalar bilan yasaladi: o`qit, ishlat.
- Orttirma nisbat bir fe`lga birdan ortiq qo`shilishi ham mumkin: o`qittir, yozdirtir.

«Bu bizniki» grammatik o'yin

SO'ZLAR

-
- Tashidi, kiyindi, tortdi, torttirdi, tanish, bezatdi, tashlandi, tashlandik, o'qish, ilitildi, puflandi, chalindi, chaldirdi, tinglashdi, chiqdi, chizildi, boyidi, qo'lladi, qo'llattirdi, ortdi, eslashdi, achindi, aytishdi, tushuntirdi, ishlash, olqish, so'zlashdi, so'zlashishdi, toshdi, tiklatilgan, bo'lindi, qaltiradi, ochildi, ochdi, suh'batlash, pishdi, tinglandi, tinglash, o'rnatishdi, to'lashdi, dalillash, o'tirish, o'tirishdi, sezdi, seskandi, kechirtirdi, siltatdi, tugaldi, tirmashdi, topishdi, o'zgarildi.

Mavzu: «SHAXSIY GIGIENA– SOG'LIQ GAROV» FE`L MAYLLARI

Darsning rejasi:

- 1. Fe`l mayllari.
- 2. Fe`l mayllari haqida ma`lumot.
- 3. Mayl shakllari tasnifi
- 4. «Shaxsiy gigiena va sog`lik garovi» mavzusidagi matn tahlili

Fe`l nima?

- Predmetning harakatini bildiruvchi so`zlar turkumi fe`l deyiladi.
- Fe`l nima qilmoq? so`rog`iga javob bo`ladi.
- Fe`llar gapda asosan kesim vazifasida keladi.

Fe`l mayllari.

- **Ish-harakatning voqealikka munosabati fe`l mayllari orqali ifodalanadi.**
- **O`zbek tilida maylning quyidagi turlari bor:**

**Aniqlik
(xabar,ijro)
mayli**

**Buyruq-istak
mayli**

**Fe`l
mayllari**

Shart mayli

Maqsad mayli



ANIQLIK MAYLI

- 1. Aniqlik (xabar,ijro) maylidagi fe`llar ish-harakatning uch zamondan birida bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabarni ifodalaydi.
- Aniqlik maylining maxsus ko`rsatkichi yo`q.
- (ko`rdim, ko`rayapman, ko`raman, ko`rding, ko`rayapsan, ko`rasan, ko`rdi, ko`rayapti, ko`radi)

BUYRUQ-ISTAK MAYLI

2. Buyruq-istak maylidagi fe`llar harakatni bajarishga da`vat etish ma`nosini bildiradi.

Bunday fe`llar – (a)y,

-gin,-sin, -aylik, - ing(iz), -sin, -sinlar

qo`shimachalari bilan hosil qilinadi: (ketay, yozay, yozgin, yozsin, ketaylik, boring, yozsin, yursinlar)

SHART MAYLI

Shart maylidagi fe`llar biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qo'yilgan harakatni ifodalaydi. Bu mayldagi fe`llar – **sa** qo'shimchasi orqali hosil qilinadi: Yozsam, yozsang, yozsa kabi. Shart mayli qo'shimchasi shaklidagi fe`llar sof shart, orzu-istak, iltimos, maslahat, faraz, payt kabi buyruq-istak mayliga xos ma'nolarni ifodalaydi.

Ayrim darslik va qo'llanmalarda shartli va maqsad mayli ham alohida ta'kidlanadi. **Shart maylidagi fe'l** – **(a)r, -mas** qo'shimchasi bilan yasaluvchi sifatdosha **edi** to'liqsiz fe'lining qo'shilishidan hosil bo'ladi va bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni ifodalaydi: U kelsa, sen borar eding.

Maqsad mayli

Maqsad maylidagi fe`l
ish-harakatning bajarilishi maqsad
qilinganligini bildiradi:

*bormoqchiman, bormoqchi
bo`layapman kabi.*

MATN SHAXSIY GIGIENA –SOG‘LIQ GAROVI

- Kunlar isishi bilan aholi o‘rtasida o‘tkir oshqozon ichak kasalliklari tarqalishi kuchayadi. Ushbu kasallik tez yuquvchi kasallik hisoblanib, to‘satdan boshlanib harorati yuqori ko‘tarilishi, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qayd qilish, ichning suyuq va tez ketishi bilan o‘tadi. Keyinchalik ich kelishi tezlashib kun sayin bemorning ahvoli og‘irlashadi. Bu kasallikning paydo bo‘lishida qo‘l iflosligi, pashshalar, qaynatilmagan suv va yuvilmagan meva-sabzavotlar alohida o‘rin tutadi.
- Issiq havo tez buziladigan mahsulotlar sifatiga salbiy ta‘sir qiladi, tayyor ovqatga kasallik paydo qiluvchi mikroblar, yangi oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan organizmlar tushib ko‘paya boshlaydi. Agar oziq-ovqat mahsuloti sabzavot va mevalarni sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilmay, yuvmasdan, noto‘g‘ri saqlanib iste‘mol qilinsa, kasalliklarga olib kelishi mumkin.

- Kasallik qanday kechmasin uch dastlabki belgilarini paydo bo'lish bilanoq shifokorga murojaat qilishi kerak.
- Inson shaxsiy gigienasini saqlashi, sog'lom bo'lishi o'ziga ham bog'liq, shu sababli quyidagi qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir;
 - - faqat qaynatilgan suv iste'mol qilish;
 - - har doim, ayniqsa ovqatlanishdan oldin va hojatxonaga kirgandan so'ng, qo'lni sovunlab yuvish kerak;
 - - meva sabzavotlarni faqat qaynatilgan suvga yuvib iste'mol qilish;
 - - non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini usti berk qapqoqli idishlarda saqlash;
 - - pashshalarning ko'payishiga yo'l qo'ymaslik;
 - - xonadon va hovlilarni doimo ozoda tutish, axlat va chiqindilarni o'z vaqtida yo'qotish;
 - - bolalarni to'g'ri va to'yimli ovqatlanishga etiborni kuchaytirish;
- “Sog'lom avlod” gazetasi 2006-yil 20-26- iyul.

The background of the slide is a solid brown color with a faint, stylized pattern of autumn leaves in various shades of brown and tan. The leaves are scattered across the frame, some overlapping, creating a textured, seasonal feel.

E'tiborlaringiz uchun
rahmat!